

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.A.Saparbayeva

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar
yozish qobiliyatini shakllantirish..... 313

H.M.Asadov

Mavzu, mazmun va lirk qahramon talqini 318

A.A.Yarkulov

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar 322

H.A.Djurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov

Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni 329

J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov

Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini
o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash 332

D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova

Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari 336

M.I.Imomaliyeva

Amiriy ijodida Yusuf obrazi 339

G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova

Inson tabiatini va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari 343

N.Maqsudov

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi 345

S.A.Olimjonov

Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin 347

Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva

O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti 351

I.S.Mannopov

Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri 354

BOLALAR ERTAK MATNLARINING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ДЕТСКИХ СКАЗОК****COGNITIVE-SEMANTIC FEATURES OF CHILDREN'S FAIRYTALES****Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyeva¹, Nishonova Sayyora Saidovna²****¹Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyeva**

- Farg'ona davlat uiversiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

²Nishonova Sayyora Saidovna

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada bolalar ertak matnlarini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish, ularning tabiatи va dunyoqarashiga mos matn semantikasi va lingvokognitiv xususiyatlarni ochib berishi misollar orqali tahlil etildi. Ertaklarning majoziy, sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklarga ajratilishining o'zi ham kognitiv axborotning qay tarzda bolaga berilishi, ma'lumot uzatish qanday rejalashtirilganidan dalolat berishi, adabiy ertaklarda muayyan kognitiv dastur mavjud bo'lib, ertakdan olinadigan xulosa, g'oya makropopozitsiyani hosil qilishi, ertaklarning kognitiv dasturi insonlarning fikrlash doirasiga qarab belgilanishi misollarda tahlilga tortildi.

Аннотация

В статье проведен анализ детских сказок с точки зрения когнитивной лингвистики, на примерах проанализирована семантика текста, соответствующая их характеру и мировоззрению, лингвокогнитивные особенности. Тот факт, что сказки делятся на образные, волшебные и сказки о животных, свидетельствует о том, как подается познавательная информация ребенку, как планируется передача информации, литературные сказки имеют определенную познавательную программу, вывод из сказки, мысль формирует макропредложение. Познавательная программа сказок анализировалась на примерах.

Abstract

In the article, the analysis of children's fairy tales from the point of view of cognitive linguistics, the semantics of the text corresponding to their nature and worldview, and the linguocognitive features were analyzed through examples. The fact that fairy tales are divided into figurative, magical and animal tales indicates how cognitive information is given to the child, how information transfer is planned, literary fairy tales have a specific cognitive program, the conclusion from the fairy tale, the idea forms a macroposition, The cognitive program of the fairy tales was analyzed in examples

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, fikrlash qobiliyati, makropopozitsiya**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, концепт, способность мыслить, макропропозиция**Key words:** cognitive linguistics, concept, ability to think, macroposition**KIRISH**

Bolalarga xos og'zaki va yozma matnlarni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish bolalar tabiatи va dunyoqarashiga moslangan matnlarning chuqur semantikasi hamda matndagi lingvokognitiv xususiyatlarning ahamiyatini ko'rsatishga yordam beradi. Zero, kognitiv yondashuv matnda quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi: a) bolalarga xos matnlarni chuqurroq tushunish; b) ularni konseptuallashtirish jarayoni hamda ular orqali namoyish etilgan kognitiv axborotni ko'rib chiqish. Bolalarga xos matnlar bolalarning lisoniy olam manzarasida konseptual sferani hosil qiluvchi konseptlar haqidagi axborotlarni, bilimlarni o'rganishni nazarda tutadi. Agar til ongimizdagи fikrning materiali, voqelanishi sifatida xizmat qilsa, bolalarga xos bo'lgan matnlar bolalarning fikrlash qobiliyatini voqelantirgani bilan ahamiyatlidir. Bolalarning olam haqidagi tasavvurini oshirishga, tafakkurini oshirishga, bilish jarayoniga yordam beradigan matnlardan biri ertak matni hisoblanadi.

Ertaklarning majoziy, sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklarga ajratilishining o'zi ham kognitiv axborot qay tarzda bolaga berilishi, ma'lumot uzatish qanday rejalashtirilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, adabiy ertaklarda muayyan kognitiv dastur mavjud bo'lib, ertakdan olinadigan xulosa, g'oya makropopozitsiyani hosil qiladi. Ta'kidlash joizki, ertaklarning kognitiv dasturi insonlarning fikrlash doirasiga qarab belgilanadi. O'zbek xalqida "Boshiga ursang birovga, yelkasiga qoqsang o'zingga" degan matal bor. Bu kontekst boshning eng ardoqli, e'zozli tana a'zosi ekanidan dalolat beradi, qadim-qadimdan odam ruhining makoni boshida degan naql bor. *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar, boshi toshdan bo'lsin kabi maqol va iboralarda ham boshning muqaddasligiga ishora bor.*

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

M.I.Gadovyaning somatizm muammolari masalalariga bag'ishlangan disseptatsiyasida bosh bilan bog'liq somatizmlar izohlanadi. Olima G'arbiy Yevropada insonning tanasida uchta ruhi borligiga xalqning qadimdan ishonishini misollarda izohlaydi va Oloriy nomli ruh insonning boshida joylashgan deb qaralishi va go'yo shu ruhning sharofati bilan inson balo-qazolardan saqlanishi xalq xotirasida qolganini ta'kidlaydi [1].

Ye.C.Danilova G.X.Andersen ertaklarining psixoterapevtik xysysiyatlarini o'rganib, ertak terapiyasi shaxs rivojlanishiga imkon beradigan, o'z-o'zini anglashga va insoniy munosabatlarning maxsus amaliy yo'naliishini belgilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi[2]. Tadqiqotchi O.Laguta esa, mualif hamda yozuvchining lisoniy-mental potentsialiga ko'ra an'anaviy ertaklar bolalarga xos tarzda o'zgartirilishi, ya'ni tabdillanishi xususida fikr yuritadi [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bolalar dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladigan ertaklarda insonning boshi aziz va muqaddas ekanligi boshqa xalqlar singari o'zbek xalq ertaklarida ham ifodalanadi, shu bilan birga, bosh va sochning o'zaro bir-biriga bog'liq, deb tushunilishi natijasida "Bulbuligo'yo", "Ota vasiyati", "Sirli gilamcha" kabi ertaklarda xalqning inson va tana a'zolari haqidagi kognitiv axborot matn sujetiga singdiriladi. Shu bois, o'zbek xalq ertaklaridan soch bilan bog'liq quyidagi kognitiv ma'lumotlarni olish mumkin:

1. Sochning tabiiy go'zalligi: *qirq kokilli pari qizlar* orqali.
2. Sochning notabiyligi: *zar kokilli bola* obrazida.
3. Sochning magik xususiyati: "Yoriltosh" ertagida.
4. Qizning qalin sochlardan arqon sifatida foydalanish.
5. Soch tolasini kuydirish vositasida: butunning bo'lakka aloqadorligi, "Bahodir va ajdarho" ertagida *sher, shoqol, bo'ri* bolaga bittadan tukini berib, yordamga hozir bo'lishi va h.k. kabi tushunchalar xalq dunyoqarashida shakllangan o'ziga xos bilimlar, kognitiv axborotlarni uzatish, yetkazish vositasidir.

Inglizlarning "Uch cho'chqacha" ertagida har bir jonzot o'ziga uy quradi, birinchisi poxoldan, ikkinchisi tikandan, uchinchisi esa g'ishtdan. Bu ertak ingliz kognitsiyasi: har bir inson alohida shaxs, uning daxsiz makoni bo'lishi kerak, degan kognitiv ma'lumotidan kelib chiqqan holda yaratilgan. O'zbek xalq ertaklarida esa uch bahodir hamjihatlikda tunni uchga bo'lib, bir-birini qo'riqlaydi, bir-biriga yordam beradi, bir uyda, bir ko'rpara katta bo'lgan, deb ta'riflanadi. O'zbek xalqida oilaning muqaddasligi, aka-ukalarning o'zaro hamjihatligi kabi qadriyatlar bolalar ongiga ertaklar yordamida singdiriladi. Ertaklarning makropropozitsiyasida kognitiv dasturlash natijasida quyidagi vazifalar namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiylashuv vazifasi. Bolalar ertaklarni tinglagani sayin jamiyatdagi munocabatlarni insonlar o'rtaclagi ahillik, ziddiyat, raqobat, yaxshi va yomonning kurashi, yomonlikning doimo yengilishi, do'stlik, biri-biriga yordam berish, hamfikrlik, do'stona, birodarlik aloqalari haqida dactlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi. "Zumrad va Qimmat" ertagida mehnatkash Zumradning taqdirlanishi, dangasa Qimmat va uning onasining jazolanishi ijtimoiy hayot qonuniyatlariga mos keladi.

2. Qadriyatlar (akciologik) vazifasi. Bunda ertak qahramonlarining xulq-atvori dagi xatti-harakatlar, ularning odob-axloqi ertakdagagi voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hatto, yovuz devlarning ham : "Gar caloming bo'limganda ikki yamlab bir yutardim". "Uch og'ayni botirlar" ertagida otaning duoci, farzandlarning oqil, mehnatkash, ilmi bo'lishi, mehmon odobiga rioya etishi asosida ertak syujeti voqelanadi.

3. Evrilish (kompensatsiya) vazifasi. Ertaklarda xayoliy uydirmalar, barcha ictak-xohishlar amalga oshishi mumkin. No'xatning bolaga aylanishi, yalmog'izning hurliqoga, yigitning cholga aylanib qolishi ertaklardagi evrilish vazifasi bilan belgilanadi.

4. Ekzistensional (hissiy jozibadorlik) vazifasi. Ayni shu vazifasi orqali ertaklar bolalar uchun qiziqrarli, ertakning 3-shaxsda bolalarga daxldor bo'lgan xususiyatlarning yoritilishi, yaxshi bilan yomonni farqlashda begona kontseptidan foydalanib, bolalarga aytib berilishi uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertakdagagi begona konsepti podsho, vazip, botir, malika, sohibjamol, yalmog'iz, dev, pari tarzida ifodalanadi.

Ertaklarda "Sehri narsa-buyumlar" kontsepti mavjud bo'lib, ular insonlarning fetishistik, totemistik qarashlari natijasida paydo bo'lgan hamda quyidagi kognitiv xususiyatlarni ifodalagan: inson taqdiri yoki tabiat olami bilan bog'liq biror-bir cirni ochish, axborot berish (*sehri tosh, sehri olma, yomonlik va yovuzlikni jazolash (taroq, sehri oyna, ur to'qmoq), farovon hayot kechirish umidi (ochil dasturxon, uchar gilam, ochil supra)*). Ko'rindaniki, bolalarga xos og'zaki matn tarkibiga kiruvchi ertaklarda mifologiya, etnik qadriyatlar hamda bola uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar uchinchi shaxsda ifodalangani bois bola tomonidan tez idrok qilinadi. Ertaklar bolalar uchun moslashtirilgan, tabdillashgan: bir xalq ertaklari doirasida hamda boshqa xalqlar ertaklariga murojaat qilish asnosida amalga oshiriladi. Shuningdek,

folklop syujetlari asosida she'riy, nacriy va dramatik acarlar ijod etish, stilizatsiyadan ham unumli foydalaniladi. C.Jo'raning "Qaldirg'och", Z.Diyorning "Yuksak tog", Q.Muhammadiyning "Qo'ng'izvoy va sichqonboy", P.Mo'minning "Kecha, bugun va erta haqida ertak" kabilar stilizatsiya orqali bolalarga moslashtirilgan. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida ertaklar filologik aspektidagina o'rganilib qolmay, balki psixologiya, pedagogika fanlarida ham tadqiqot obyektiiga aylanib bormoqda. Ertak terapiya nomi bilan qo'llaniluvchi didaktik ta'lif vositasi bola shaxsiga bilvosita ta'sir ko'rsatish usuli bo'lib, unda bolalarning axloq-odobi, qadriyatlar tarbiyasi, muayyan kasb-hunarga o'rgatish usuli sifatida zamonaviy pedagogikada keng qo'llanib kelinmoqda. Bunda ertakdagagi obrazlar so'zlovchining lisoniy-mental faoliyati natijasida olamni metofaragen anglash hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi G.X.Andersen ertaklaridagi metaforani mayda bo'laklarga bo'linmaydigan yaxlit geshtalt, deb baholaydi hamda ertaklarning ymymiy propozitsiyasida quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatadi:

1. G.X. Andersen ertaklari insoniy his-tuyg'ularni tarannum etidi hamda shaxsni axloqiy, intellektual, estetik jihatdan rivojlantiradi.
2. Ertak qahramonlarining emotsiyonal holatini ifodalashga urg'u beradi.
3. Tinglovchi va o'quvchida ertak qahramonlariga chuqur hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi.
4. Nasroniylik dini va e'tiqodiy qarashlarni targ'ib qiladi.
5. Kishilik jamiyatni va insonning kuchli va kuchsiz tomonlarini ifodalaydi.
6. Mashaqqatlarda toblangan ertak qahramonlarining ma'naviy kamolotini tasvirlaydi.
7. Qalb go'zalligi, bag'rikenglik, insoniy fazilatlar tarannum etiladi.
8. Myallif ertak matnida voqelearning sodda va qisqa bayoniga intiladi. [4]

Ta'kidlash joizki, o'zbek adiblari orasida folklop namunalari, asosan, ertaklarning bolalar yoshi, rivojlanish xususiyatlariaga mos tarzda qayta ishlanishi, ya'ni tabdil (interpretatsiya) hodisasi ko'plab uchraydi. Jumladan, Shukur Sa'dulla 50 dan ortiq ertaklarni qayta ishlab, tabdil qilishda samarali natijalarga erishadi. Jumladan, "Uch tulki", "Qarg'aboy", "Tulki bilan turna", "Maqtanchoq quyon", "Sholg'om", "Bo'g'irsoq" kabi ertaklar rasmi kitobchalar shaklida mактабгача yoshdag'i bolalarga mo'ljallangan. Bunda asosan kreol matndan unumli foydalanilgan. Bolalarga xoslanish, tabdil qilish deb bolalarning kontaminatsiyasiga, ertak qahramonlariga xayolan o'xshashga, o'zini ertak qahramoni sifatida tasavvur qilishiga aytildi. Yoki ona va buvilar tomonidan aytigan har qanday hikoya, she'r, ertak orqali bola xayoliy qahramonlarga ishlov beradi, o'z kontaminatsiyasini yaratadi. Nemis shoiri Haynrix Haynening onasi fransuz tilini biladigan ziyozi fozila ayol bo'lganligi va u tinmay farzandiga go'zal she'r va ertaklar aytganini shoirning o'zi xotirlaydi: "Onam bolaligimda she'rilar o'qib berardi, men shoir bo'ldim. Amakivachcham Sulaymonning onasi faqat qaroqchilar haqida kitoblar o'qib berardi, u bankir bo'ldi", deb xotirlaydi[4].

XULOSA

Shu o'rinda aytish joizki, adabiy ertaklar, bolalarga xos yozma matnlari ham bolalar badiiy adabiyoti namunalarini o'z ichiga olib, unda bolalarga xos tushuncha va tasavvurlar ifodalanadi.

Bu esa turli yosh davrlarida bola ruhiyatining bir-biridan sezilarli farq qilishini ko'rsatadi. Pedagogika va psixologiyada chaqaloqlik, ilk bolalik, mактабгача ta'lif yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlari nafaqat xronologik yosh ko'rsatkichi bo'lmay, balki shu davrda bola ichki olamida, ruhiyatida yuz beradigan kechinmalarning turfa xilligi, umumiyl qonuniyatlariga ko'ra o'ziga xoslikni ifodalashi ta'kidlangan. Bolalarga xos yozma matnlari bolalar adabiyoti namunalarini hosil qilib, unda badiiylikdan tashqari, muayyan yoshga yo'nalgalik namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Gadoyeva M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi: filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2022. – B. 86.
2. Danilova Ye. C . Duxovniy acpekt psixoterapevticheskogo effekta skazok G.X. Andersena. 2021 - dspace.onu.edu.ua. Murojaat sanasi: 21.09.2021.
3. Laguta O.N. Metaforologiya: teoreticheskie aspekti . – Novosibirsk, 2003. CH.1 . – C.7.
4. Haynrix Hayne. Sevgi iztiroblari. To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mallifi A.Akbarov. – Toshkent: Dono, 2019.
5. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225.
6. Yuldasheva D.M. Anthropocentric Approach To Children'S Speech Study. Section 2: Linguistics Theory, Applied Linguistics. Collection Of Materials Of The International Online Conference.Www.Research-Support-Center.Com 2020.92-95
7. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Epra Internashinal Jurnal Of Multidisciplinary Research(Ijmr). Impact Factor: 7.6.11.November.